

## FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN DARAXTLAR BIOEKOLOGIYASI

**Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

[tuychiyevafdu1993@gmail.com](mailto:tuychiyevafdu1993@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi sharoitida iqlimlashtirilgan dukkaddoshlar oilasiga mansub manzarali daraxtlar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan oq akatsiya, shoyi akatsiya, arg‘uvon, yapon saforasining bioekologiyasi haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dendroflora, iqlimlashtirish, flora, ipak akatsiyasi, yasmiqcha, nektar, gledichiya, arg‘uvon, tuxumak, oq akatsiya.

### ABSTRACT

This article provides information about ornamental trees of the legume family, which are acclimatized in the conditions of the Fergana valley. Including information on the bioecology of white Albizzia julibrissin Durazz, Gleditsia triacanthos L, Cercis siliquastrum L, Sophora Japonica L.

**Keywords:** dendroflora, acclimatization, flora, Albizzia julibrissin Durazz, Gleditsia triacanthos L, Cercis siliquastrum L, Sophora Japonica L, lentil, nectar.

Farg‘ona vodiysi dendroflorasida iqlimlashtirilgan daraxt va butalar xilma-xilligi va turlarga g‘oyat boyligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda ko‘kalamzorlashtirishga alohida e’tibor berilishi bois ularning xilma-xilligi yanada ortib bormoqda. Mazkur o‘simliklar ayni hudud florasini boyitibgina qolmay, hududga o‘ziga xos chiroy baxsh etadi..

Quyida Farg‘ona shahrida iqlimlashtirilgan, shahar ko‘chalari hamda istirohat bog‘larini ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalanilayotgan manzarali daraxt va butalarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Shoyi akatsiyasi yoki ipak akatsiyasi (Albizzia julibrissin Durazz.) o‘rta bo‘yli daraxt o‘simlikdir, uning bo‘yi 10—12 m ga, diametri 40 sm ga yetadi. Shox-shabbasi soyabon shaklda bo‘lib, nihoyatda chiroyli. May oyining oxiri — iyunning boshlarida gullaydi. Guli nektarli. Mevasi yassi dukkak. Ipak akatsiyaning xarakterli belgilaridan biri shuki,

kechqurun quyosh botgandan keyin barglari yig'iladi va osilib turadi. Ertalab kun yorigach yana o'z holiga qaytadi. Sovuqqa chidamsiz. Farg'ona vodiysida uchratish mumkin.[1,2,3]

Gledichiya (*Gleditsia triacanthos* L.) bo'yi 25—30 m ga diametri 0,7 m ga yetadigan katta daraxt. Shox-shabbasi katta, yoyiq, siyrak po'stlog'i silliq, qo'ng'ir-kul rangda, yosh novdalari va shoxlarining po'stlogi kul rang. Novda, shoxlaridagi barglar qo'ltig'ida shoxlanib, bu tikanlar o'zgargan novdalardir. Barglari uzun bandli, novdalarining pastki qismidagilari juft patsimon, o'rta qismidagilari qo'sh patsimon tuzilgan. Bargchalari mayda, oval shaklda, cheti tekis. Gledichiya may oyida gullaydi. Gullari kichik shingilsimon to'pgul hosil qiladi. Gledichiya tez o'sadi, 120 yilgacha yashaydi. U har xil yerlarda o'sa oladi. Yorug'sevar, sovuqqa chidamsiz daraxt, Janubiy tumanlarda va Markaziy Osiyo respublikalarida yaxshi o'sadi. U asosan ixota o'rmon qatorlari barpo qilishda muhim rol o'ynaydi.

Arg'uvon daraxt o'simlik bo'lib, balandligi 3—6 metrlar atrofida, novdasi silliq, qo'ng'ir rangda, barglari navbat bilan joylashadi, ular oddiy, yumaloq yoki buyraksimon bo'lib, uchi yumaloq yoki o'yi, tubi yuraksimon, cheti tishchasiz, tuksiz, bo'yi 5—8 sm, eni 7—12 sm. Barg bandi 20—30 mm, 5—7 ta asosiy tomiri bor. Gullari binafsha rangda, to'pguli katta shingilcha hosil qiladi. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, guli nektarli. Mevasi uzun, yassi dukkak, yuqori choki qanotchali. Yogochi qattiq, og'ir, o'zakli bo'lib, o'zagi yashil-sariq, tevaragi oq-pushti rangda. Bu daraxt urug'dan ko'payadi. Urug'i unib chiqish xususiyatini 2 yilgacha saqlaydi. Manzarali daraxt sifatida Qrimda ko'p ekilgan. Sovuqdan qisman zararlanadi. Issiqqa, qurg'oqchilikka juda chidamli. Bulardan tashqari, oddiy bagryanik (*Cercis siliquastrum* L.) ham ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida ko'plab ekiladi.[4,5,6]

Yapon saforasi (*Sophora japonica* L.) ning bo'yi 20 m dan ortadL shox-shabbasi yoyiq, sharsimon, nihoyatda xushmanzara. Po'stlog'i katta yoshida bo'yiga yorilgan bo'ladi va qoramtir tusga kiradi, shoxi va novdalarining pustlogl silliq va to'q yashil bo'lib, yasmiqchalari bor. Barglari navbat bilan joylashadi, toq patsimon tuzilgan bo'lib, 7—17 ta tuxumsimon bargchalardan iborat. Tuxumak may oyida gullaydi, gullari oq sariq, kapalaksimon bo'lib, novdasining uchida shingil ro'vak hosil qiladi. U nektar chiqarib turadigan o'simlik. Dukkagi oktabr oyida yetiladi, u daraxtda osilib turadi, seret, sirti cho'tir, pallalarga ajralmaydi, yelimsimon suyuqlik bilan to'la, avval yashil bo'lib, so'ng to'q qizil rangga kiradi. Urug'i qora bo'lib, loviyaga o'xshab ketadi. U bahorda sepilsa, 10—15 kundan so'ng unib chiqadi. O'q va yon ildizlari baquvvat bo'lib rivojlanadi, to'nkasidan ko'karadi. Daraxti tarkibida zaharli modda bor, ammo undan

hayvonlar zararlanmaydi. Tuxumakning yog‘ochi o‘zakli, qattiq. Yorug‘sevar o‘simlik, yer tanlamaydi, sho‘rtob tuproqda ham o‘saveradi, qurg‘oqchilikka chidamli. Tuxumak xushmanzara daraxtlardan biri hisoblanadi. Chunki chiroyli gullaydi. Tuproqni yomg‘ir yuvib ketishidan saqlash uchun uni tog‘larga ekish muhim ahamiyatga ega. Ko‘kalamzorlashtirish ishlarida keng qo‘llash tavsiya yetiladi.[7,8]

Oq akatsiya (*Robinia pseudoacacia* L) bo‘lib, Oq akatsiya toq-patsimon barglarga ega bo‘lib, gullari besh tishli gulkosasiga va kapalaksimon gulbandiga ega. Mevasi ko‘p urug‘li yassi dukkak. Oq akatsiya issiqqa, yorug‘likka talabchan bo‘lib, hayotining dastlabki davrlarida tez o‘sadi, 10-12 yoshidan boshlab o‘shish tezligi pasayib ketadi va hosilga kiradi. Yaxshi aeratsiyaga ega yengil tuproqlarni ma‘qul ko‘radi, tuproq zichlashuvidan zarar ko‘radi. Oq akatsiya daraxti qimmatli o‘rmon meliorativ daraxt sifatida seleksiya obyekti bo‘lib xizmat qilgan, uning shimoliy hududlarda o‘shishga moslashgan sovuqqa bardoshli shakllari yaratilgan. Oq akatsiya Markaziy Osiyoga introduksiya qilinganiga 100 yildan oshib ketgan. Oq akatsiyaning ildiz sistemasi juda moslashuvchan, o‘q ildizidan tashqari gorizontol ipsimon ildizlari ona daraxtdan atrofga tarqalib o‘sadi. Oq akatsiya qurg‘oqchilikka chidamli daraxt sifatida o‘rmon melioratsiyasida keng qo‘llaniladi, ayniqsa ihota o‘rmonlari barpo etish uchun tavsiya etilgan eng muhim daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Farg‘ona vodiysidagi manzarali daraxtlarning aksariyat qismi iqlimlashtirilgan daraxtlar hisoblanadi.

Shunday qilib, xalq xo‘jaligida daraxt-butalaming ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Daraxt turlarining qimmatli xususiyatlarini to‘g‘ri baholash uchun ushbu turning barcha biologik, ekologik va fiziologik xususiyatlarini bilish zarur.[9,10]

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. kizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146-151.
2. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023, January). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. In *international conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 378-380).
3. qizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022, December). THE ECOSYSTEM OF INSECTS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 110-113).
4. qizi Tuychiyeva X. Z. O‘SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 33-39.

5. Tuychiyeva X. YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 8.
6. qizi Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA’SIRI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 296-273.
7. Qizi X. T. Z. Markaziy Farg‘ona tabiat yodgorligi hududida tarqalgan umurtqasiz hayvonlar asosiy turlarining bioekologiyasi va trofik aloqalari //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – T. 8. – C. 154-166.
8. Muhiddinov, A., & qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). JISMONIY RIVOJLANISH SOG ‘LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O ‘RNI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 83-87.
9. Barnogul K., Khilola T. The essence of the biological education process, teaching printouts and legislation //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 4. – C. 129-133.
10. Kamalova H., Tuychieva H. Improving the spiritual immunological education of academic lyceum students specific issues //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 616-620